
Fanlar akademiyasi Botanika instituti olimlari tomonidan yangi o’simlik turi kashf etildi


O‘zR FA Botanika instituti O‘zbekiston florasi hamda Molekulyar filogeniya va biogeografiya laboratoriyasi xodimlari fan uchun piyoz (Allium) ning yangi turini aniqladilar. Surxondaryo viloyatidagi Bobotog‘ tizmasidan topilgan bu tur Allium suhangii deb nomlandi. Allium suhangii morfologik jihatdan Allium brevidensga o‘xshash, lekin tojbarglarining uzunligi va o‘ziga xos rangi bilan farqlanadi. Kashf qilingan yangi turning tavsifi mashhur PhytoKeys jurnalida nashr etildi (https://phytokeys.pensoft.net/article/96464/). Maqola Allium turkumiga mansub bo‘lgan yangi turning O‘zbekiston hududidan topilganligini va uni to‘liq O‘zbekiston florasi uchun noyob endemik tur ekanligini ko‘rsatadi.




Allium sunhangii A–A1 gulning butun va bo‘ylama kesmasi. B gulning alohida ko‘rinishi. C urug‘chining ko‘ndalang kesmasi. D–D1 piyozbosh qobig‘i va piyozbosh. E turning umumiy ko‘rinishi (barglarsiz).



Allium sunhangii F.O.Khass., Tojibaev & Z.Yuss., sp. nov. ning golotipi



Allium sunhangii, A. brevidens, A. nikolai va A. pshikharvicum ning tarqalish xaritasi



A1–A2 to‘pgulning ko‘rinishi va o‘sayotgan Allium sunhangii. B–B1 Zarkosa cho‘qqisining umumiy ko‘rinishi va yashash joyi landshafti.

Filogenetik daraxt va unda A. sunhangii ning joylashishi.